




HUQUQSHUNOSLIKNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYADA HUQUQIY AXBOROT TIZIMLARINI O'RNI: LEX.UZ, NORMA.UZ, WESTLAW VA HEINONLINE KABI XALQARO PLATFORMALARNI TAQQOSLASH

Aminov Ibroxim Nodir o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xususiy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

e-mail: ibrohimaminov42@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17871335>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 2-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 9-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

huquqiy axborot tizimi, raqamli transformatsiya, Lex.uz, Norma.uz, Westlaw, HeinOnline, huquqiy ma'lumot bazasi, sun'iy intellekt, normativ huquqiy hujjatlar.

ABSTRACT

*Raqamli transformatsiya va huquqshunoslik sohasidagi texnologik o'suv, huquqiy axborot tizimlarining ahamiyatini oshirdi. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy qonunchilik platformalari- **Lex.uz** va **Norma.uz** hamda xalqaro ikkita yirik ilmiy va sud pretsedentlari bazalari- **Westlaw** va **HeinOnline** taqqoslanadi. Maqolada ularning tuzilishi, ma'lumot bazalari hajmi, funksional imkoniyatlari, foydalanuvchilari, shuningdek ustun va kamchiliklari ni tahlil qilamiz va rivojlantirish istiqbollarini ko'rib chiqamiz.*

KIRISH

So'nggi o'n yillikda jamiyatning barcha sohalarida raqamli o'zgarishga keskin duch kelmoqda. Texnologiyalarning kundan kunga rivojlanishi huquqshunoslik sohasini ham chetlab o'tmadi va huquqni qo'lash usuli va normativ huquqiy hujjatlar bilan ishlash, qidirish, o'rganish, tahlil qilish jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Masalan, avvalari normativ huquqiy hujjatlarni asosan bosma ya'ni kitob ko'rinishidagilar, kutubxonalar orqali yoki kitob do'konlaridan olib foydalanilgan. Bu esa juda ko'p vaqt yuqotilishiga sabab bo'lgan. Hozir raqamlashtirish orqali ma'lumot olish tezligini sezilarli darajada oshirdi, qolaversa tahlillash sifatini, huquqiy izchillikni va normativ huquqiy hujjatlar amaliyotining shaffofligini ta'minlash imkoniyatini ham kengaytirdi.

Xususan O'zbekistonda huquqiy axborot tizimlarining rivoji ya'ni raqamlashishi davlat boshqaruvini modernizatsiya (takomillashtirish) qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, Lex.uz va Norma.uz "Huquqiy axborot" tizimlari kabi raqamli ma'lumotlar fuqarolar, tadbirkorlar va huquqshunoslar uchun yuridik ma'lumotlarni ochiqqligini ta'minlab, istalgan shaxs kirib normativ huquqiy hujjatlar bilan tanishib chiqishlari mumkin va bu zamonaviy davlat boshqaruvining muhim belgisiga aylandi. Xalqaro arenada esa Westlaw, HeinOnline va boshqa raqamli huquqiy tadqiqot olib borayotgan tashkilotlar mavjud, ularning asosiy vazifasi huquqiy tadqiqot olib borish, sud amaliyoti bilan ishlash va akademik izlanishlarni rivojlantirishda muhim o'rinlarni egallaydilar.

Biroq, ushbu tashkilotlar (platformalar, web-saytlar) orasida juda katta farqlar mavjud, ya'ni huquqiy hujjatlarning qamrovi, qidiruv usuli aniqliligi, tarjima qilish imkoniyatlari, arxiv hujjatlar mavjudligi va (dizayn) interfeys ko'rinishi jihatidan ular bir-biridan juda katta farqlanadi. Shuning uchun, mazkur ilmiy maqola O'zbekistonning asosiy raqamli huquqiy

axborot tizimlari- Lex.uz, Norma.uz, Westlaw va HeinOnline kabi yirik raqamli huquqiy axborot tizimlarini taqqoslaydi va ular huquqshunoslikning raqamli transformatsiyadagi rolini o'rganadi.

Ushbu argumentning dolzarbligi aks etishi shundagi, 21-asr (zamonaviy) huquqshunosi endi faqat milliy qonunchilik tizimi bilan cheklanib qolmaydi uning o'rniga transmilliy huquqiy munosabatlar, xalqaro biznes shartnomalar, arbitrajlar (xalqaro arbitrajlar), kibernetika, xalqaro tranzaksiyalar, intellektual mulk, huquq va erkinliklar va bir so'z bilan aytganda huquqning barcha sohalarida xalqaro yuridik axborot tizimlaridan foydalanish zarurati kundan kunga ortmoqda (ma'lumotlar almashinilmoqda, tajriba va ko'nikmalar usul va uslublari haqida ma'lumotlar almashinuvi amalga oshirilmoqda). Demak, milliy huquqiy raqamli tizimlardan tashqari xalqaro raqamli huquqiy tizimlar haqida va ularning ustun tomonlari va ular taklif etayotgan qulaylik va imkoniyatlarini ham o'rganib, tahlil qilish kerak va bu faqat va faqat ijobiy natijalarga olib kelishi tabiiy.

METODLAR

Ushbu tadqiqot har taraflama yondashuvga asoslangan holda, huquqiy tahlil, har bir tashkilotlar tahlili va ularning tizimli yondashuvi usul va uslublariidan foydalaniladi. Avvalo, ochiq resurslar, ilmiy maqolalar va rasmiy huquqiy manbalardan foydalangan holda har bir platformaning texnik va funksional xususiyatga to'plandi. Bundan tashqari, O'zbekiston va Xalqaro platformalar bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar (foydalanuvchilar soni, hujjat bazasi hajmi va boshqa statistikalar) tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslash uchun adabiy manbalar va qonuniy hujjatlar ham o'rganildi (normative huquqiy hujjatlar, amaldagi qonun hujjatlari, ilmiy maqolalar va boshqalar).

NATIJALAR

Yuqorida ko'rsatilgan raqamli tizimlarni tahlilini boshlasak. **Westlaw**- bu online huquqiy servislari qidiruv portal (sayti) bo'lib 1975- yil Thomson Reuters Corporation tomonidan tashkil topgan va yuristlar, advokatlar va boshqa huquqqa befarq bo'lmagan insonlar uchun katta ma'lumotlar to'plami ya'ni (big database) bundan tashqari Westlaw platformasi ma'lumotlaridan oltmishdan yuqori mamlakatlar qonunchiligi va huquqiy hodisalar haqida (law case), shtatlar, administratsiyaviy kodlar, maqolalar ya'ni (articles) , gazetalar , huquqiy jurnallar, huquqiy xulosalar, huquqiy hujjat namunalari va boshqa ko'plab aniqrog'i qirq mingdan ko'p ma'lumotlar bazasida axborotlar bor. Westlaw sayti albatta pullik lekin uning huquqiy ma'lumotlarini (hujjatlarni) West Key system lashtirilganligi uchun va saytning keyingi rivoji uchun bu haqqoniydir, shuning uchun bu saytni ko'pincha advokatlar va yuridik sohadagi studentlar foydalanishadi. Uning qulayliklariga keladigan bo'lsak so'nggi o'zgarishlarda ular Sun'iy intellektning o'z saytlariga qo'shishgan, KeyCite funksiyasi ya'ni hodisani baholash tizimi yo'lga qo'yilgan va bu raqamli huquq tizimida juda katta yutuqlarga ilk va juda muhim qadam desak adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari saytda siz "Boolean search" tizimi, bu tizim asosan mayda detallarga ya'ni "VA, BIROQ, YOKI " so'zlarigaa e'tibor qaratgan holda qidirish tizimi bu so'zlar bir qaraganda farq yo'qdek ko'rinsada huquqda juda katta oqibatlariga olib kelishi hech kimga sir emas.

HeinOnline bu yana bir gigant raqamli huquqiy axborot tizimi hisoblanadi. Bu platforma nafaqat amaldagi qonun hujjatlari balki tarixdagi (o'tmishdagi) qonun hujjatlarini ham o'z ichiga jalb qilgan qolaversa akademik jurnallar arxivi, Amerika Qo'shma Shtatlarini boshqaruv va pretsedent dokumentlari bor. Bu sayt bazasida 243 million bet materiallar, shuningdek 3300 alohida vaqtdagi xulq-atvor hujjatlari bor, Bu sayt huquqiy saytligi hammaga ayon lekin undan tashqari saytda siz "Congressional Record" "United States Report" (1754) yig'ilishlari, BMT , AQSH normativ huquqiy hujjatlari, "World Constitutions illustrated" eksklyuziv ya'ni

barcha mamlakatlar konstitutsiyasi keltirilgan. HeinOnline platformasi 1920-yildan beri faoliyat yuritadi va Westlawdan farqi shundaki bu platformaning asosiy yo'nalishi yuridik kutubxona, ya'ni bu platforma fokusini yuridik to'plamga qaratgan, bu yerda siz istalgan normativ huquqiy hujjatni skanerlangan sur'at shaklida emas, PDF formatida topasiz va oson uslubda qidiruv berasiz. 2007-yil HeinOnline platformasi top 100 "Eng zarur raqamli kontent qiluvchi kompaniya" ga kirgan. 2009-yil "Subject Compilations of State Laws Database" sovrindori bo'lgan va Amerikaning eng yaxshi yuridik kutubxonasi bo'lgan. Lekin afsuski bu platforma 175 ta mamlakat bazasini o'z ichiga olgan bo'lsa ham, bu sayt pullik hisoblanadi shuning uchun bu saytdan ko'pincha yirik advokat firmalari foydalanadi.

Endi o'zimizning milliy platformalarga o'tadigan bo'lsak, eng birinchisi va eng muhimlaridan biri bu tabiiyki, **Lex.uz** milliy platformasi. Bu platforma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi axborot-ma'lumot markazi tomonidan boshqariladi. Lex.uz milliy platformasining ustunlik tomoni shundaki bu platforma mutlaqo hamma uchun tekin hisoblanadi, va o'z Ichida O'zbekiston Respublikasining barcha normativ huquqiy hujjatlari (qonunlar, kodekslar, farmonlar va boshqa) ni o'z ichiga oladi. Bu saytda siz nafaqat amaldagi qonunlarni balki ularning eski versiyasini ularning tahrirlarini va xalqaro kelishuvlarni ham topishingiz mumkin. Sayt Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 340-sonli qaroriga muvofiq 2007- yil 1-maydan beri faoliyat yuritadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi PQ-2761-sonli qaroriga asosan bu platforma milliy baza ya'ni milliy raqamli huquqiy bazasi hisoblangan. Platformada siz qonunlarni o'zbek, rus, lotin alifbosidagi qonunchilik hujjatlaridan foydalana olasiz. Lex.uz statistikasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, saytda ja'mi 112607 ta amaldagi hujjatlar, 176 ta yangi tahrirdagi hujjatlar shuningdek 43822 ta o'z kuchini yuqotgan hujjatlar bor, va foydalanuvchilar soni kuniga taxminan 50-60 ming , oyiga esa o'rtacha 5-6 million ko'rsatkichga yetgan. Lex.uz platformasini hozirgi raqamli platformalar bilan bellashadigan tarafi shundaki, yaqinda bu saytga Lex.Ai qo'shildi ya'ni sun'iy intellekt. Lex.Ai da siz bir soatlik qidiruvni bir daqiqa ichida amalga oshira olishingiz, hujjat loyihalarini ekspertiza qilish imkoniyati, Huquq amaliyotini tahlil qilish va hujjat loyihalarini tayyorlash va huquqiy holat ya'ni (kazuslar) tezda huquqiy chora ko'rishga yordam beradi, Lekin , afsuski Lex.uz sayti mutlaqo tekin bo'lgani bilan Lex.Ai albatta pullik xizmat hisoblanadi.

Ikkinchi milliy, juda foydali raqamli huquqiy axborot tizimi bu Norma.uz. **Norma.uz**- sayti ham axborot huquqiy portali bo'lib, bu ham Adliya vazirligi huzurida tuzilgan lekin tijorat tashkilot hisoblanadi. Norma.uz platformasi 1999-yildan beri faoliyat yuritadi va o'zbek var us tillarida huquqiy ham iqtisodiy ma'lumotlar beradi, Kompaniyaning bosh maqsadi bu "biz mijozlarimizga aniq, dolzarb va kerakli axborotdan foydalana olish imkoniyatini beramiz, bu esa ularga to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi." Deb aytishadi. Norma.uz sayti ham faqat O'zbekiston Respublikasi normative huquqiy hujjatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, u yuridik qolaversa, bulgarteriya, soliq va boshqaruv sohasida ham muhim (kalit) ro'lini bajaradi. Bu saytda qonunchilik bilan bog'liq bo'lgan so'nggi yangiliklarni maqola, jurnal sifatida o'qiy olishingiz, shuningdek ularga professional huquqshunoslar orqali tayyorlangan sodda tildagi normativ huquqiy hujjatlarning sharhlari bilan ham tanishib chiqish imkoniyatini beradi. Bu platformada o'zingizni huquqiy kasbingizni ko'tarish uchun professionallarga o'quv seminarlari bo'ladi. Norma.uz saytida normative huquqiy hujjatlar, tushunturish (sharh) , uslubiy va ma'lumot materiallari soni 140 000 dan oshib ketdi. Bu sayt qisman tekin deb aysak adashmagan bo'lamiz, chunki bu saytda boshqalariga o'xshab AI ya'ni sun'iy intellekt emas balki haqiqiy huquqshunos yuristlar sizning savolingizga cheklangan miqdorda javob berishadi bu esa vaqtni tejamasada professional yondashuvni kafolatlab qo'yadi.

Ushbu to'rtta ya'ni ikkita O'zbekiston Respublikasi milliy raqamli huquqiy axborot tizimi Lex.uz va Norma.uz va xalqaro raqamli huquqiy axborot tizimlari Westlaw va HeinOnline, yana ham aniqroq bo'ladigan bo'lsan, Westlaw ham HeinOnline ham garchi ular xalqaro bo'lsa ham ikkalasi ham Amerika Qo'shma Shtatlarida tashkil etilgan hisoblanadi. Bu milliy va xalqaro platformalar bir biridan ko'p farq qilsada bir vaqtning o'zida ularning o'xshash tomonlari ham talaygina. Masalan, Lex.uz platformasi bilan HeinOnline platformasi deyarli bir xil chunki ikkala raqamli bazalarda ham normativ huquqiy hujjatlar to'plami, qarorlar, va boshqa hujjatlarning katta bazasiga ega. To'g'ri HeinOnline kompaniyasining huquqiy bazasi kattaroq va u faqat Amerika Qo'shma Shtatlari qonunlari bilan cheklanmagan shuning uchun ham bu platformaning katta bazaga ega bo'lishi tabiiy, chunki HeinOnline 1920 yilda Lex.uz 2007 yilda tashkil etilgan, bu qisqa davrda bunaqa katta baza to'plamiga ega bo'lgan Lex.uz milliy platformasi qanchalik tez o'sayotganini ko'rishimiz mumkin, ha bu ikkala platformada ham o'zining AI ya'ni sun'iy intellekti mavjud va bular qidirishni yanada osonlashtiradi, lekin HeinOnline platformasi xalqaaro, u o'zida 175 davlat konstitutsiyasi va boshqa davlatlar normative huquqiy hujjatlar borligi uni bu sohada yaqqol peshqadam platformaga aylantirdi. Lekin, Lex.uz milliy platformasi mutlaqo tekin ekanligini yodimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Bu tarafga qaraydigan bo'lsak, Westlaw va Norma.uz platformalari ham bir biriga juda yaqin hisoblanadi, chunki har ikkala saytda ham normative huquqiy hujjatlar, ularning sharhlari, maqolalar, jurnallar shuningdek bo'lgan yangiliklar haqida axborotlar bor. Lekin, Westlaw platformasi 1975 yilda tashkil topilgani sababli ular o'z ustida ko'proq ishlagan ya'ni ularda aqliroq qidiruv tizimi mavjud (Boolean search) bu yanada aniqlilikni ta'minlashga yordam beradi. Har ikkala platformada ham haqiqiy yuristlar konsultatsiya berishadi va bu milliy portalimi uchun juda katta yutuq hisoblanadi, biroq Norma.uz platformasida AI ya'ni sun'iy intellekt hali joriy qilinmagan, bu esa boshqa saytlardan juda katta orqada ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Huquqshunoslikning raqamli transformatsiyasida huquqiy axborot tizimlarini o'rni nafaqat yuristlar-u advokatlar balkim oddiy fuqaro yoki yurisprudensiya sohasi bilan notanish bo'lgan insonlarga ham yordam berayotgani juda katta ustunlik beradi, bundan tashqari, raqamli axborot tizimlari barcha qatlamdagi shaxlarni ya'ni yuqorida aytib o'tilganidek, hoh u advokat bo'lsin hoh yurist yoki oddiy fuqaro bu raqamli platformalar oltinga teng bo'lgan vaqtlarini juda sezilarli ravishda asraydi, qolaversa, ular hozirgi tez rivojlanib, tez o'zgarayotgan dunyoda, yangi tahrirlamayotgan qonunchiliklarni bitta telefon yoki boshqa smart gadjetlari orqali hammasini o'sha yerda saqlab o'zgarishlardan bohabar bo'lishmoqda.

Lex.uz va Norma.uz kabi milliy platformalarda O'zbekiston raqamli huquqiy tizimining transformatsiyasida hal qiluvchi ya'ni o'ta muhim ro'lni amalga oshiradi. Ular fuqarolarga qulaylik, amaldagi normativ huquqiy hujjatlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Biroq xalqaro platformalar, Westlaw va HeinOnline kabi gigantlar bilan taqqoslaganda ularning imkoniyatlari hali to'liq darajada raqamlashgan transformatsiya talablari darajasiga chiqmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Jurnallar:

1. Abdullayev. A (2021) "O'zbekiston huquqiy tizimining raqamli transformatsiyasi: muammolar va istiqbollari"
2. Karimova. N. (2020) Huquqiy axborot tizimlarining takomillashuvi va ularning amali ahamiyati. Yuridik tadqiqotlar jurnali.

3. Rustamov. Z. (2023) Sun'iy intellekt asosidagi yuridik platformalar: global tajriba va O'zbekiston uchun saboqlar, Innovatsion Huquqshunoslik

Vebsayt:

1. Lex.uz sayti <https://lex.uz/uz/>
2. Norma.uz sayti <https://www.norma.uz/oz/>
3. Westlaw sayti <https://legal.thomsonreuters.com/en/westlaw>
4. HeinOnline sayti <https://heinonline.org/HOL/login-hol>
5. Wikipedia sayti <https://ru.wikipedia.org/wiki>



**INNOVATIVE
ACADEMY**